

O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus  
ta’lim vazirligi  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи

**“O‘ZBEK TILINING YANGILANAYOTGAN  
O‘ZBEKİSTON MILLİY YUKSALISHIDA  
TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI”**

RESPUBLIKA MASOFAVIY ILMİY-AMALIY  
ANJUMANI MATERİALLARI  
2020-YIL 23-OKTABR



BUXORO – 2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
KAFEDRASI

“O'ZBEK TILINING YANGILANA YOTGAN O'ZBEKISTON  
MILLIY YUKSALISHIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI”

mavzusidagi respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO'PLAMI

2020-YIL 23-OKTABR



BUXORO – 2020

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligiga 31 yil to'lganligi munosabati bilan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'risida"gi PF-5850-son Farmonida ko'zda tutilgan "O'zbek tili bayrami kuni"ni keng nishonlash, jumladan: O'zbek tilini davlat tili sifatida nufuzini oshirish va qo'llanish ko'lamini yanada kengaytirish; Davlat tilini milliy qadriyat sifatida e'zozlash; unga risbatan milliy g'urur hissini kuchaytirish va targ'ib etish; O'zbek tilining xalqaro mavqeyini mustahkamlash maqsadida Buxoro muhandislik-teknologiya instituti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida 2020-yil 23-oktabrda "O'zbek tilining yangilanayotgan O'zbekiston milliy yuksalishida tutgan o'rni va ahamiyati" mavzusida Respublika masofaviy ilmiy-amaliy anjumanini o'tkazildi. To'plamga mazkur anjuman materiallari kiritilgan.

**Tashkiliy qo'mita a'zolari:**

BuxMTI ilmiy va innovatsion ishlari prorektori:  
f-mf.doktori M.Sharipov

BuxMTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi mudiri,  
falsafa fanlari doktori G.S.Yunusova

Mas'ul muhamir: BuxDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrasi dotsenti  
B.E.Qilichev  
BuxMTI "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchilari:  
G.X.Istamova  
Sh.F.To'xtayev

**Maqolalardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va imlo jihatlariga  
mualliflar mas'uldir.**

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. И.Каримов. "Юксак ва маънавият- енгилмас куч" Т.:Маънавият, 2008.-176 б
2. <http://www.slovonovo.ru>

**JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA NUTQ  
MADANIYATINING O'RNI**

Sabirova Nasiba Rasulovna

BuxDU o'qituvchisi

Dunyoga nazar soladigan bo'lsak, har bir millat, dat, har bir zarradan tortib to mavjudot, maxluqotgacha o'z tili, zaboni, nutqi mavjud. Har bir insonning nutqi o'ziga xosligi, dunyoqarashiga mosligi bilan ajralib turadi. Insonlar nutqi orqali o'z tafakkuri bilan o'rtoqlashadi, voqe'a-hodisalar haqida aniq ma'lumot beradi. O'zining nutqi orqali tinglovchiga ta'sir qiladi. Agar kishi o'z fikr va dunyoqarashini til orqali bayon eta olmasa, tinglovchi bu nutqdan mazmun-mohiyatni ajrata olmasa, demak bunday nutqning til qurilishida grammatik-uslubiy nuqsonlar mavjudligi ayonlashadi. Nutq madaniyati tilning tiganmas boyligini egallashdir[1]. Bugungi davr talabi yuqori darajadagi mutaxassislarini tayyorlash sifati va malakasi darajasiga risbatan tobora yuqori talablarni talab qilmoqda. Nutq madaniyatiga bo'lgan talablar inson va jamiyatning umumiyligi va kasbiy madaniyatining muhim, integral ko'rsatkichi sifatida zamонави sharoitda ham oshib bormoqda. Universal kompyuterlashgan eng yangi texnologiyalar davrida odamlar mulqotining eng muhim vositasi sifatida tilni yuqori darajada bish, yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, fikr va hissiyotlarni shakllantirish va ifoda etish vositasi har qanday shaxs uchun davr talabidir.

Nutq madaniyati insonning umumiyligi madaniyatining tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u tafakkur madaniyatini, o'zini tutish madaniyatini aks ettiradi, asosan, shaxsning ma'naviy va axloqiy ko'rinishini tavsiflaydi, uning kommunikativ faoliyati samaradorligiga ta'sir qiladi va faoliyati og'zaki nutq bilan bevosita bog'liq bo'lgan odamlar uchun bu muhim shartdir. Sport sohasi vakillari ham odamlar bilan ishlaydilar, ular fizioterapiya mashg'ulotlari, jismoniy reabilitatsiya, sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya, sport menejmenti va hokazolarda ham o'z nutqlari orqali o'z fikrlarini ifodalaydilar, yo'naltiradilar. Shuning uchun ularning kasbiy ishi, qanchalik muhim bo'lmasin, ko'rgazmali faoliyat bilan birlgilashda, asosiy ilmiy bilimlar va uslubiy tayyorgarlik orqali belgilanishi kerak. Nutqni o'stirish nazariy va uslubiy kurslar bilan bir qatorda bo'lishi kerak, chunki bu umumiyligi kasbiy kompetensiyaning eng muhim elementlaridan biri bo'lib, bu kelajakda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarini og'zaki nutqning amaliy ko'nikmalari bilan uyg'unlashishiga imkon beradi. Biz jismoniy tarbiya va sport sohasidagi bo'lajak mutaxassislar orasida nutq madaniyatini shakllantirish

jarayoni samaradorligini oshirish uchun pedagogik tizimni nazariy va eksperimental asoslashga harakat qilamiz. Jismoniy madaniyat (tarbiya) o'qituvchisining professional nutq mahoratining modeli uning xususiyatlari turli o'lchamlarga tegishli ekanligi bilan tavsiflanadi. Bundan tashqari, bu alomatlar juda ko'p, shuning uchun ba'zi mutaxassisning nutqi boshqalarga nisbatan "yaxshi", yoki aksincha bo'lishi mumkin. Nutqning sayozligi pedagogik xususiyatlarining yuqori sifat darajasida bo'lishiga olib kelmaydi. Shu sababli, kasbiy nutq modeli omillarini ko'paytirish yo'li bilan olingan komponentlar asosida tavsiflash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi kasbiy nutqining namunaviy tavsifini uchta aksioma asosida izohlash mumkin:

- 1) kasbiy faoliyatda og'zaki nutqdan foydalangan holda o'qituvchi gapiradi yoki tinglaydi;
- 2) kasbiy nutq natijasi nutq faoliyatining 3 bosqichining birligi va amalga oshirilishi bilan ta'minlanadi;
- 3) yo'naltirish, bajarish, razorat qilish; kasbiy nutqni bilish darajasi ko'p yoki oz, yaxshi yoki yomon bo'lishi mumkin.

Jismoniy madaniyat(tarbiya) o'qituvchilari har bir harakatni nutq orqali izohlaydilar. Har bir harakat nutq orqali ifodalanganda, qanday niyatni amalgalashirish, ma'lum ratijaga erishishga xizmat qiladigan odamning nutq xatti-harakatlarining asosiy birligi sifatida tavsiflanadi. Nutqning tarkibiga predmet, maqsad, mazmun, foydalaniladigan vositalar - og'zaki va og'zaki bo'limgan vositalar kiradi.

Og'zaki xatti-harakatlar axborot-kommunikativ funksiyani bajaradi, ya'ni og'zaki hamda akustik vositalar orqali o'qituvchi ma'lumot uzattadi va talabalar bilan almashadi. Og'zaki vositalardan foydalanish sifati va samaradorligi nutqning kommunikativ fazilatlari (to'g'riliqi, aniqligi, tozaligi, ifoda etuvchanligi, qulayligi, boyligi, izchilligi) bilan tavsiflanadi. O'qituvchining akustik vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichi – bu shakllangan nutq texnikasi bo'lib, u ovozning, dixsiyaning shakllangan sifatlarini o'z ichiga oladi. Og'zaki bo'limgan xatti-harakatlar aloqa jarayonida axborot va tartibga solish funksiyalarini bajaradi. Agar og'zaki nutq ma'lumotni yetkazish uchun ishlatsa, og'zaki bo'limgan vositalar shaxslararo munosabatlarni "muhokama qilish" uchun ishlataladi. Og'zaki bo'limgan vositalarga kinetik (tana harakatlari - imo-ishoralar, mimika, pantomima) va proksimal vositalar (aloqani fazoviy tashkil etish) kiradi [2]. Nutqning yuqori darajada sayqallanganligi, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislardan ta'limini tubdan shakllantirishga yordam beradi, mphiyati, madaniy mazmunini kengaytiradi, bilimlarini yanada chuqurlashtirish uchun xizmat qiladi. Nutq madaniyatining yuqoniligi sport va jismoniy tarbiya talablarining

istiqbollarini belgilaydi. Nutqning ko‘p qirrali xususiyatlari ta’lim darajasi va ixtisoslashuvini tanlash imkoniyatini yaratadi va shu bilan talabalarning ta’lim sohasida ham, kasbiy ixtisoslashuv sohasida ham turli ehtiyojlari va qiziqishlarini amalga oshiradi. Jismoniy tarbiya sohasida kadrlar tayyorlash va yangi ixtisosliklarni shakllantirishda nutqning ahamiyati cheksiz. Ular ideal holda aniq ijtimoiy talabga javob berishi kerak. Aynan shu narsa har doim mafaqat o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyatini, balki kasbiy faoliyat sohasida tezkor navigatsiya qilish qobiliyatini shakllantiradi, keng ixtisoslashuvga ega bo‘ladi, shu bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan talabni oldindan biladi. Zamonaliviy jismoniy tarbiyaning taraqqiyot modeli ta’limning mohiyatini, uning shaxs va jamiyat bilan bog‘liq maqsadlarini, munosabatlari va vazifalarini belgilaydigan qadriyatlar tizimiga asoslangan. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish va ularga mos keladigan turidagi ta’lim modeliga mos kelishi kerak. Ta’lim mazmuni rivojlanishining asosiy tendensiyalariga kiruvchi, ijtimoiy-antropologik yondashuvning ustunligini mustahkamlash; insонни tushurishni yanada to‘liqroq tushurish; gumanitar bilimlar va gumanitar tadqiqotlar ijtimoiy yo‘naltirilganligi; tabiiy va gumanitar fanlarni birlashtirish tendensiyasi, ta’limning yanada mazmuni va tuzilishi talab etiladi. Demak, qaysi sohani olmaylik, insон o‘z hayotida til va nutqning o‘rnini nihoyatda muhimligini anglaydi.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Богин Г.И. Уровни и компоненты речевой способности человека. Калинин, 1975. - 128 с.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. – Toshkent, 1993.
3. Чучалина А.И., Чусовитина О.М. Теоретические основы профессионально-речевой подготовки будущих специалистов в области физической культуры и спорта // "Теория и практика физической культуры" 2005.

## **5-SHO‘BA. O‘ZBEK ONOMASTIKASI MASALALARI**

### **ТОПОНИМЛАР ТАРКИБИДАГИ СОНЛАР ҲАҚИДА**

**Байрамали Қиличев**

**БухДУ доценти**

Ўзбекистон топонимиясида турли морфологик бирликларни кузатиш мумкин. Булар сирасига от, феъл, сифат каби фаол қўлланадиган, равиш, олмош, сон каби микдоран кўп бўлмаган номлар хам учрайди. Биз ушбу ахборотда топонимлар таркибида кузатиладиган айрим шаклан сонга ўхшаш,

14	Sainxova Z.A.	O'zbekistonda davlat tilining o'rni	38
15	Fayazova D.S.	Dil idroki – til javhari	40
16	Nazarova M.M.	Milliy tilidanishdan milliy yuksalishga yuz tutgan O'zbekistonda davlat tilining o'rni	42
17	Бафоев Ф.М.	Тил – милят ташриф қозоги	45
18	Нуруллаева Г.М.	Тил – милят кўзгуси	47
19	Ҳасанова З.Б.	Тилга муҳаббат – ватанга садоқат	49

## 2-SHO'BA. ONA TILI TA'LIMIDA INNOVATSION YONDASHUV

№	Muallif (lar)	Mavzu	Bet
20	Нурмурадова Ш.И.	Ona tili ta'limimi va shaxsga йўналтирилган ўқитиш технологиялари	51
21	Tosheva N.M.	O'zbek tili ta'limalida innovatsion yondashuv	54
22	Bozorova N.H.	Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, shakllantirish ormillari va imkoniyatla ni	56
23	Mihitdinova M.S., Pardayeva N.N.	Masofaviy o'qitishni tashkil etish – davr talabi	59
24	Xaydarova N.G.	Ona tili darslarida innovatsion texnologiyalarning	62

168

		samaradorligi	
25	To'xtayev Sh.	Harakat nomi shaklini grafik organayzerlar asosida o'tish	64
26	Taxirova X.	Ona tili darsligi yuzasidan ayrim mulohazalar	67

## 3-SHO'BA. O'ZBEK TILINING NAZARIY MASALALARI

№	Muallif (lar)	Mavzu	Bet
27	Jo'rayeva B.M., Aminova A.O`.	Konseptning lingvokognitiv tahlili xususida	70
28	Холмукамедов Б.Ф.	Ўзбек тилидаги тасвирий сўзларнинг лексемалашувини ҳакида	73
29	Баракатова Д.А.	Адабий тил меъёрлари ва талаффуз маданиятини ҳакида	76
30	Истамова Г.Х.	Фитрат ва ўзбек тишишнослигининг айрим назарий масалалари	78
31	Иzzатуллаева Г.	Фитрат ва имло масалалари	81
32	Шокиров Л.Б., Сайдова Г.Ш.	Tarjima soҳasiда ўзбек tilinining roli	83
33	Boltayeva N.O., Boltayeva V.O.	Publitsistik matrlarda sarlavhaning vazifalari	86
34	Ubaydullayeva X.	O'zbek tilshunosligida iboralarning o'mi	88

## 4-SHO'BA. O'G'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

№	Muallif (lar)	Mavzu	Bet
35	Ғафурова Н. Н.	Zamonaviy mutahassislarни тайёrlashiда оғзаки нуткнинг аҳамияти	92
36	Sabirova N.R.	Jismoniy tarbiya o'qituvchilar faoliyatida nutq madaniyatining o'rni	94

## 5-SHO'BA. O'ZBEK ONOMASTIKASI MASALALARI

№	Muallif (lar)	Mavzu	Bet
37	Киличев Б.	Toponimlar tarkiyidagi sonlар ҳакида	96
38	Камолова С., Файзуллаева Ш.	Françuz adabiёtiida onomastika	102
39	Шодиева И.О., Кудратова Н.У.	Tiishiunoqlikda hidronimlar	105
40	Камолова С., Файзуллаева Ш.	Françuz antroponimlarining milliy-madaniy kирралари	108